

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY-HISSIY TA'LIMNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19191220>

Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna

Navoiy davlat universiteti

pedagogika kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu ilmiy maqola bo'lajak o'qituvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijtimoiy-hissiy ta'limning (SEL) nazariy va amaliy ahamiyatini tizimli tahlil qiladi. Zamonaviy pedagogikada ijtimoiy-hissiy ta'lim emotsional intellektni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligi, konfliktlarni boshqarish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy-hissiy ta'lim, hayotiy ko'nikmalar, bo'lajak o'qituvchilar, pedagogik kompetensiyalar, emotsional intellekt, O'zbekiston ta'limi.*

**Аннотация**

*В данной научной статье систематически анализируется теоретическое и практическое значение социально-эмоционального воспитания (СЭВ) в формировании жизненных навыков у будущих учителей. В современной педагогике уделяется внимание тому факту, что социально-эмоциональное воспитание способствует повышению социальной адаптивности, навыков управления конфликтами и принятия решений у будущих учителей посредством развития эмоционального интеллекта.*

**Ключевые слова:** *социально-эмоциональное воспитание, жизненные навыки, будущие учителя, педагогические компетенции, эмоциональный интеллект, образование в Узбекистане.*

**Abstract**

*This scientific article systematically analyzes the theoretical and practical importance of socio-emotional education (SEL) in the formation of life skills in future teachers. In modern pedagogy, attention is paid to the fact that socio-emotional education serves to increase the social adaptability, conflict management and decision-making abilities of future teachers through the development of emotional intelligence.*

**Keywords:** *socio-emotional education, life skills, future teachers, pedagogical competencies, emotional intelligence, education in Uzbekistan.*

Bugungi kunda pedagogik faoliyatda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar hamda hayotiy malakalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat va ta'lim tizimi o'qituvchidan faqatgina fan bilimlarini yetkazuvchi emas, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy kamolotiga mas'ul bo'lgan yetakchi tarbiyachi sifatida faoliyat yuritishni talab etadi. Yurtimizda bunday ta'lim sohasi vakillarining mehnati va ijtimoiy mavqeiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 1-fevral kuni 21-moddadan iborat "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunning imzolanishi bu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun pedagoglarning huquq va majburiyatlari, ijtimoiy himoyasi hamda kasbiy faoliyati

kafolatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlab, ularni asossiz tekshiruvlar va majburiy mehnatdan himoya qilishni nazarda tutilgan<sup>27</sup>. Bunday qulay shart-sharoitlar ta'lim sohasi vakillarini doimiy izlanish olib borishga, o'z ustida ishlashga pedagogning kasbiy samaradorligi va ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda hayotiy ko'nikmalar – muammolarni hal etish, samarali muloqot, empatiya va stressga chidamlilik – kasbiy faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy-hissiy ta'lim bu ko'nikmalarni sistematik rivojlantirishning samarali pedagogik strategiyasi bo'lib, Daniel Goleman emotsional intellekt nazariyasiga asoslanadi<sup>28</sup>. Ushbu yondashuvi talabalarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarning emotsiyalariga moslashish qobiliyatini shakllantirib, pedagogik jarayonning sifatini oshiradi.

Ijtimoiy va hissiy o'rganish (Social and Emotional Learning – SEL) ta'lim jarayoni hamda inson rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bu barcha yoshdagi bolalar, yoshlar va kattalarning sog'lom shaxs sifatida kamol topishi, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, shaxsiy hamda jamoaviy maqsadlarga erishish, boshqalarga nisbatan hamdardlikni his etish va namoyon qilish, qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va saqlab qolish, shuningdek mas'uliyatli va ongli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni egallash hamda amaliyotda qo'llash jarayonidir.

Ijtimoiy-hissiy ta'lim (SEL – Social-Emotional Learning) 1990-yillarda AQSh va Yevropa pedagogikasida shakllangan bo'lib, CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) modeli asosida rivojlangan. Bu model beshta asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi:

1. O'z-o'zini anglash: o'z his-tuyg'ularini bilish va ijobiy o'z-o'zini tushunchasini rivojlantirish mahorati.
2. O'z-o'zini boshqarish: o'z hissiyotlarini tartibga solish va o'z xatti-harakatlarini kuzatish qobiliyati bu, shuningdek, ichki motivatsiya va shaxsiy maqsadlarni belgilash bilan bog'liq.
3. Ijtimoiy xabardorlik: boshqalarning his-tuyg'ulari va ijtimoiy vaziyatlari to'g'risida xabardor bo'lish qobiliyati.
4. O'zaro munosabatlar ko'nikmalari: munosabatlarni rivojlantirish va ular ichida muloqot qilish qobiliyati.
5. Mas'uliyatli qaror qabul qilish: muammolarni hal qilish va o'zini javobgarlikka tortish qobiliyati<sup>29</sup>.

CASEL modeli(SEL) sinflar, maktablar, oilalar va tarbiyachilar va jamoalar kabi turli darajalarda amalga oshirishning eng yaxshi usullarini belgilaydi. Ushbu g'oyalar bo'lajak pedagoglarda muammolarni hal etish, konfliktlarni boshqarish, tanqidiy va reflektiv fikrlash, samarali muloqot olib borish, jamoa bilan ishlash hamda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, emotsional intellektni shakllantirish orqali o'qituvchining stressga chidamliligi, kasbiy moslashuvchanligi va pedagogik vaziyatlarga to'g'ri munosabat bildirish kompetensiyasi yuksaladi.

Ijtimoiy-hissiy ta'lim asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarda empatiya, ijtimoiy mas'uliyat hamda axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularning tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishiga, jamiyatda raqobatbardosh, mas'uliyatli va barkamol pedagog kadrlar sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy

---

<sup>27</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/01/pedagog-maqomi/> 2024-yil 1-fevral

<sup>28</sup> Goleman D. Emotsional intellekt. – Moskva: Mann, Ivanov i Ferber, 2013.

<sup>29</sup> CASEL. SEL Framework. – Chicago: CASEL, 2020

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

tayyorgarligida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi zarur. Zero, zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat chuqur nazariy bilimga ega, balki mustaqil fikrlay oladigan, samarali muloqot qila biladigan va murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila oladigan pedagoglarni tayyorlashni talab etadi.

Yurtimizda ijtimoiy-hissiy ta'limni joriy etilishi bo'yicha 2025-yil 19-avgustda "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan YUNESKOning yurtimizdagi vakolatxonasi, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bilan hamkorlikda o'qituvchilar uchun Ijtimoiy-hissiy ta'lim (SEL) dasturi" bo'yicha o'quv treninglariga start berildi. Ushbu dastur ilk bor amaliyotga joriy etilib, o'quvlarda 40 nafar ustoz o'z bilim va mahoratlarini oshirishlari ko'zda tutilgan<sup>30</sup>. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, ijtimoiy-hissiy ta'limni O'zbekiston ta'lim sohasiga olib kirish buning natijasida, o'quvchilarda o'zini anglash, mas'uliyatli qaror qabul qilish va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga tayyorlashdir. Kelajak avlodni intellektual va emotsional jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi maqsad qilib qaralmoqda.

Xulosa. Ijtimoiy-hissiy ta'lim (Social Emotional Learning – SEL) bo'lajak pedagoglarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon ularning emotsional intellekti, empatiya qobiliyati, konfliktologik kompetensiyasi va stressga chidamlilik resurslarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida pedagog shunchaki bilim uzatuvchi emas, balki, ijtimoiy-madaniy mediator, shaxsiy rivojlanish va psixopedagogik yetakchi sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday yondashuv ta'lim jarayonida o'qituvchini metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi, o'quvchilarning sotsial adaptatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi hamda psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, SEL konsepsiyasi bo'lajak pedagoglarni xolistik rivojlanish modeli asosida tayyorlashga xizmat qiladi, ya'ni ularning kasbiy, ijtimoiy va emotsional salohiyatini bir butun tizimda shakllantirishni ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/01/pedagog-maqomi/> 2024-yil 1-fevral
2. Goleman D. Emotsional intellekt. – Moskva: Mann, Ivanov i Ferber, 2013.
3. CASEL. SEL Framework. – Chicago: CASEL, 2020
4. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/yangilik/unesco-tashkiloti-bilan-hamkorlikda-oqituvchilar-uchun-ijtimoiy-hissiy-ta-lim-sel-dasturi-bo-yicha-o-quv-trening>
5. UNESCO. Uzbekistan SEL projects.
6. PMC. Enhancing wellbeing among pre-service teachers
7. Durlak J.A. et al. The impact of enhancing students' social and emotional learning // Child Development, 2011. Vol. 82. No. 1. P. 405-432.

---

<sup>30</sup><https://milliytarbiya.uzedu.uz/yangilik/unesco-tashkiloti-bilan-hamkorlikda-o-qituvchilar-uchun-ijtimoiy-hissiy-ta-lim-sel-dasturi-bo-yicha-o-quv-trening>